



Iminoxunov Abdukoxor Abdivaitovich,

*O'zbekiston Respublikasi Oriental universiteti Nodavlat oliy ta'lim muassasasi
Yoshlar masalalari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha birinchi prorektor*

NODAVLAT OLIIY TA'LIM TASHKILOTLARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-MA'MURIY VA MOLIYAVIY MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarini boshqarishning tashkiliy-ma'muriy va moliyaviy mexanizmlarini tahlil qilishda rivojlangan davlatlar tajribasi tadqiq qilindi. Bundan tashqari, nodavlat oliy ta'lim muassasalarining daromad olish manbalari, xususiy sherikchilik shakllari va moliyaviy mexanizmlari yoritildi.

Tayanch so'zlar: nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarini boshqarish, moliyaviy mexanizm, xususiy sherikchilik, daromad, menejment.

Аннотация. В данной статье был проанализирован опыт развитых стран по анализу организационно-административных и финансовых механизмов управления негосударственными высшими организациями образования. Кроме того, были выделены источники доходов, формы частного партнерства и механизмы финансирования негосударственных вузов.

Ключевые слова: управление негосударственными высшими образовательными организациями, финансовый механизм, частное партнерство, доходы, управление.

Annotation. The experience of developed countries in the analysis of organizational-administrative and financial mechanisms of management of non-state higher education organizations was analyzed in this article. In addition, sources of income, forms of private partnerships and financial mechanisms of non-state higher education institutions were highlighted.

Keywords: management of non-governmental higher education organizations, financial mechanism, private partnership, revenue, management.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyot va umuman jamiyatning rivojlanishi ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning jadal rivojlanishiga asoslanadi. Ushbu tendensiyaning amalga oshirish uchun oliy ta'limning innovatsion salohiyatidan foydalanish zarur. Bularning barchasi oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish va ta'lim muassasalariga investitsiyalarni jalb etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqishni taqozo etadi. Nodavlat ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, bu borada rivojlangan mamlakatlardagi biznes va oliy ta'lim muassasalari

o'rtasidagi hamkorlikdan andoza olish, ilg'or xorij tajribalarini qo'llash, "Bilimlar iqtisodiyoti" davrida yanada jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun mutaxassislar tayyorlash tizimiga o'zgartirishlar kiritish, biznes tuzilmalari va oliy o'quv yurtlarining o'zaro hamkorligini keng yo'lga qo'yish, mehnat bozori bu jarayonning katalizatori sifatida ishtirok etishi, universitetlar avtonomiyasining qisqarishi, davlatning faol qo'llab-quvvatlashi natijasida yuzaga keldi.

Ushbu tendensiya iqtisodiyotning yuqori malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojini

qondirishga xizmat qilgan tegishli qonun hujjatlari bilan hamroh bo'ldi. Ushbu innovatsiyalar davlat tomonidan moliyalashtirishning kamayishi va yangi byudjetdan tashqari manbalarni izlash fonida amalga oshirildi. Shu bilan birga, oliy ta'limni boshqarish va tashkil etish tizimida ham mamlakat miqyosida, ham universitetlar doirasida tarkibiy o'zgarishlar kuzatildi. Har qanday mamlakat oliy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyati bu sohada qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan ko'plab institutlarning mavjudligidir. Chunki oliy ta'lim tizimi tarmoq asosida qurilgani, iqtisodiyotning ilg'or harakatlanishi nafaqat oliy o'quv yurtlari, balki ishbilarmon doiralar, davlat idoralari, bank tizimi, ommaviy axborot vositalarining sa'y-harakatlarini talab etadi.

Asosiy qism. Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarini boshqarishning tashkiliy-ma'muriy va moliyaviy mexanizmlari bo'yicha bir qancha olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan, xususan, Smis va Akib (2015)lar fikriga ko'ra, oliy ta'lim tashkiloti boshqaruvi haqidagi tasavvur turli talablar va raqobat muhiti bilan farqlanadi. Shu jumladan, oliy ta'lim muassasasining imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan institutsional boshqaruv va moliyaviy boshqaruv oliy ta'lim boshqaruvidagi vazifalarni qo'llab-quvvatlashga qaratiladi¹.

Rondinelli (2007)ning tadqiqotlariga ko'ra, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi asosida yaxshi boshqaruv eng muqobil boshqaruv hisoblanib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) bevosita ishtirok etish;
- 2) shaffoflik;
- 3) hisobdorlik;
- 4) natijadorlik va samaradorlik;
- 5) qonun ustuvorligi;
- 6) javobgarlik;
- 7) konsensusga yo'naltirilganlik;
- 8) adolatlilik;
- 9) strategik qarash².

¹ Smith A. & Akib H. The Implementation Effectiveness of Trash Management in Ambon, Maluku: The Influence of Socialization, Coordination and Control to the Effectiveness of Trash Management. International Journal of Public Administration (Vol. 38). 2015. <https://doi.org/10.1080/01900692.2014.908214>

² Rondinelli D.A. Globalization of sustainable development: Principles and practices in transnational corporations. Multinational Business Review. – № 15, 2007. (1). pp. 1–24.

Rodinelli ta'lim sifati kafolatini ta'minlaydigan uchta muhim jihatni ajratib ko'rsatadi, ya'ni kompetensiya, akkreditatsiya va javobgarlik ta'limda ustuvorlikni tasniflaydi, xususan:

a) ishlash bo'yicha javobgarlik, ya'ni maqsadlarga erishish bilan bog'liq javobgarlik;

b) hisobdorlik jarayoni, ya'ni jarayonlar, protseduralar, qoidalar, ko'rsatmalar va h.k.

d) moliyaviy javobgarlik: pul mablag'larining daromadlari va sarflanishi bilan bog'liq bo'lgan javobgarlik³.

Oliy ta'lim boshqaruvi paradigmasini tavsiflovchi boshqaruvning uch bosqichi mavjud, xususan:

– an'anaviy boshqaruv, yo'naltirilgan iyerarxiya, uzluksizlik, xolislik, standartlashtirish, huquqiy-ratsionallik, vakolat va professionallik;

– boshqaruv tamoyillarini qo'llash, jumladan, resurslardan foydalanish samaradorligi, samaradorlik, mijozlarga yo'naltirilganlik, bozor munosabatlariga yo'naltirilganlik va jamiyat manfaatlariga nisbatan sezgir bo'lgan korporativ boshqaruv, shuningdek, xususiy sektorning rolini oshirish, davlat sektori hajmini qisqartirish va an'anaviy oliy ta'lim boshqaruvi ulushini qisqartirish;

– moslashuvchanlik, imkoniyatlarni kengaytirish, innovatsiyalar va natijalarga yo'naltirilganlik, autorsing va shartnomalar, shuningdek, kasbiy etika, boshqaruv va samaradorlikka asoslangan byudjetni ilgari surish tamoyiliga yo'naltirilgan innovatsion boshqaruv⁴.

Iriantoning (2012) ta'kidlashicha, universitet avtonomiyasi (o'zini o'zi boshqarish huquqi yoki sharti) universitetlarning o'z funksiyalari va vazifalarini bajarish uchun vakolatlarini ta'minlaydigan tizimdir.

Nodavlat oliy ta'lim avtonomiyasi o'ziga xos bo'lgan siyosat, tashkiliy tizimlar, boshqaruv tizimlari, resurslar va moliyaviy boshqaruv siyosatini o'z ichiga olgan dasturni yaratdi. Avtonom universitet boshqaruvini to'rtta yo'nalishda rivojlantirish mumkin: akademik avtonomiya,

³ Burke J.C. The many faces of accountability. Achieving Accountability in Higher Education: Balancing Public, Academic and Market Demands, 2005. pp. 1–24

⁴ Grözinger Gerd & Rodríguez-Gómez Roberto. (2007). Managing Higher Education: Introduction. Management review. The International Review of Management Studies. – № 18. pp. 95–101. 10.5771/0935-9915-2007-2-95.

moliya sohasida avtonomiya, resurslar avtonomiyasi va tashkiliy avtonomiya. Ushbu to'rtta element o'zaro bog'liq bo'lib, akademik sohadagi avtonomiya universitetlarning o'z akademik siyosatini belgilashda oliy ta'limning uchta mas'uliyatini amalga oshirishga erishishini anglatadi⁵. Birinchidan, daromad va xarajatlarni boshqarish, rejalashtirish, aktivlardan samarali foydalanish vakolatiga erishiladi. Ikkinchidan, jalb qilingan tashqi byudjet manbalaridan ta'lim sifatini yaxshilash uchun yo'naltirishga erishiladi. Uchinchidan, universitetlar manfaatdor tomonlar oldida moliyaviy ma'lumotlardan foydalanishi uchun javobgarlik va hisobdorlik muntazam ta'minlanishi kafolatlanadi.

Muktiyanto va boshqalar (2014) fikriga ko'ra, oliy ta'limning avtonomligi ta'limning markazlashmagan modeli sifatida quyidagi boshqaruv talablariga javob berishi lozim:

- boshqaruv namunasi va amalga oshirilishining demokratik bo'lishi kerak;
- jamiyatning imkoniyatlarini kengaytirish boshqaruvning asosiy maqsadi bo'lishi lozim;
- jamiyatning roli boshqaruv tizimining muhim qismiga aylanadi;
- xizmat ko'rsatish tez, arzon, samarali, natijador bo'lishi kerak;
- milliy ta'lim tizimini mustahkamlash yo'lidagi intilishlar va qadriyatlar xilma-xilligi hamda mahalliy me'yorlarga rioya qilish kerak⁶.

Ushbu o'zaro ta'sirning tabiati, usullari va o'ziga xos shakllari bozor munosabatlarining yetukligi va milliy xususiyatlariga qarab sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Masalan, Buyuk Britaniyada Oliy ta'lim innovatsion jamg'armasi (IFHE) tashkil etilgan bo'lib, u universitetlarni tanlov asosida moliyalashtiradi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida uchrashuvlar va sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish uchun ixtisoslashtirilgan ofis maydonlarini yaratishga ko'maklashish, bu orqali marketing tadqiqotlarini markazlashtirish, ta'lim xizmatlari va maslahatlar berish, texnologik

ishlanmalar asosida yangi firmalar tashkil etish, shuningdek, talabalarni tadbirkorlik faoliyati ko'nikmalariga o'rgatish orqali rag'batlantiriladi.

Biznes va hukumat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning asosiy vazifalaridan biri universitet faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashdir. G'arbiy Yevropada universitetlarni moliyalashtirishning asosiy xarajatlarini davlat o'z zimmasiga oladi. Masalan, "Shvetsiyada universitetlar va boshqa oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish, asosan, davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi. 2020-yilda oliy ta'limga jami 78 milliard kron (taxminan, 8 milliard yevro) sarflandi, bu Shvetsiya yalpi ichki mahsulotining 1,57 foiziga teng. Umuman olganda, oliy ta'limning qariyb 80 foizi davlat mablag'lari hisobidan moliyalashtirildi. Bundan tashqari, ushbu mablag'larning qariyb 76 foizi ularga bevosita davlat subsidiyalari ko'rinishida yo'naltirilgan. Yana 6 foizi boshqa davlat fondlari hisobidan keladi. Qolgan qismi xususiy moliyalashtirish manbalari va oliy ta'lim muassasalarining o'z daromadlari hisobidan qoplanadi⁷.

Xalqaro ta'lim xizmatlari bozorida yetakchi bo'lgan AQSh oliy ta'lim tizimi Yevropa tizimiga nisbatan bir qator farqlarga ega. AQShda biznes va ta'lim muassasasining yaqin hamkorligiga asoslangan universitetlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishining samarali tizimi yaratilgan. AQShning sobiq prezidenti Bill Klinton: "Bizda yaxshi universitetlar borligi boyligimiz uchun emas, balki yaxshi universitetlarimiz borligi uchun boymiz", – deb aytgani ajablanarli emas.

Qo'shma Shtatlardagi davlat universitetlarining asosiy daromad manbayi davlat byudjeti mablag'lari bo'lib, oliy ta'lim tizimi davlat kafolati va nazorati ostidaligi bilan xarakterlanadi. Xususiy universitetlar uchun asosiy daromad manbayi shartnoma to'lovlari, xususiy grantlar va xayriyalar hisoblanadi. Davlat ta'lim muassasasi maqomi qanchalik baland bo'lsa, umumiy daromadda o'qish to'lovining ulushi shunchalik kam bo'ladi, mahsulot (ish, xizmat)lardan olingan o'z daromadlarining ulushi esa shunchalik ko'p bo'ladi. Xususiy notijorat universitetlarning daromadida investitsiyalar va o'qish to'lovlaridan olingan daromadlar ustunlik qiladi, shuningdek, mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan olingan

⁵ Rachman E. & Nawawi J. & Arismunandar Arismunandar & Kasmawati A. & Akib Haedar. Autonomy of private higher education management: Financial accountability perspective. International Journal of Economic Research. – № 14, 2017. pp. 175–185.

⁶ Muktiyanto A., Rossieta H. & Hermawan A. A. The Effect Of Good University Governance And Strategy Toward The Performance Of Higher Education Institution, 2014.

⁷ <https://english.uka.se/download/18.6b692de317a75d632f314a7c1631105759132/An%20Overview%20of%20Swedish%20Higher%20Education%20and%20Research%202021.pdf>

daromadlar davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Biroq xususiy notijorat universitetlarining maqomi qanchalik baland bo'lsa, uni davlat tomonidan moliyalashtirish hajmi shunchalik ko'p bo'ladi. Xususiy notijorat universitetlarida o'qish to'lovlari daromadning asosiy qismini ta'minlaydi, davlat mablag'laridan keladigan daromadlar esa kam ulushni tashkil qiladi.

Umuman olganda, AQSh universitetlari davlatga kamroq bog'liq bo'lib, asosiy mablag'lar xayriyalardan tortib yirik investitsiyalargacha bo'lgan turli xil grantlar orqali moliyalashtiriladi. Shu sababli Amerika oliy ta'limida yirik korxonalar, biznes vakillari, ishlab chiqaruvchilar, davlat tashkilotlari bilan yo'lga qo'yilgan hamkorlik jihatlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, bevosita kadrlar tayyorlashda o'quv dasturlarini tuzish va kurslarining bevosita ishlab chiquvchisi sifatida o'z takliflari bilan ishtirok etib menejerga aylanishadi. Shu yo'sinda universitetni boshqarish biznesning ishtiroki bilan tavsiflanadi. Natijada moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va universitetlarning o'zgaruvchan bozor talablariga yuqori moslashuvi, kadrlar salohiyatining oshishiga erishilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, turli mamlakatlarda xususiy investitsiyalarni jalb qilishning tashkiliy mexanizmi juda xilma-xildir, lekin ko'pincha u davlat-xususiy sheriklik shaklida taqdim etiladi.


Oliy ta'limga xususiy sarmoyalarni jalb qilish muammosi juda dolzarb bo'lgan mamlakatimiz uchun bu borada ma'lum tajribaga ega mamlakatlar tajribasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatlar kesimida davlat-xususiy sheriklikdan foydalanishni tahlil qiladigan bo'lsak, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab G7 mamlakatlari – AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Kanada, Fransiya, Yaponiya umumiy ko'rinish bilan taqqoslaganda, 1-o'rinda sog'liqni saqlash, 2-o'rinda ta'lim, 3-o'rinda yo'l-qurilish loyihalari o'rin egallagan.

Shunday qilib, davlat-xususiy sheriklik orqali investitsiyalarni jalb qilish uchun tanlangan sanoat va mamlakatning rivojlanish darajasi o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda sog'liqni saqlash va ta'limning ustuvorligi davlatlarning ushbu sohadagi siyosati bilan belgilanadi.

Davlat-xususiy sheriklikning shakli, asosan, boshqaruv obyekti, sheriklikning tashabbuslari, sa'y-harakati qaysi tomonga yo'naltirilgani bilan belgilanadi. Shu sababli ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikning asosiy shakllari sifatida sheriklik tashabbuslari yo'naltirilgan boshqaruv obyekti tashkilot yoki uning alohida tarkibiy bo'linmasi bo'lgan institutsional shaklini va dastur-loyiha shaklini ajratib ko'rsatish mumkin. Ta'lim sohasida nodavlat-xususiy sheriklik shakllari va mexanizmlari tasnifi 2-rasmda keltirilgan.

Biznes sektori va universitet o'rtasidagi hamkorlikning individual mexanizmlarini ajratish sheriklik tashabbuslari (sa'y-harakatlari) amalga oshiradigan usullarning xususiyatlariga asoslanadi. Tashkiliy-ma'muriy mexanizmlarga jamoatchilik ishtirokidagi institutlar (jamoat, boshqaruv, vasiylik, nazorat va boshqa kengashlar) universitetlarda tashkil etilgan turli texnopark tuzilmalari



1-rasm. Amerika oliy ta'lim muassasalarining daromad olish manbalari tavsifi⁸

⁸ Tadqiqotchi ishlanmasi

(texnologiyalarni uzatish markazlari, inkubatorlar va akselerator markazlari), innovatsion infratuzilma institutlari, bitiruvchilar uyushmalari va boshqalar kiradi.

Biznes vakillari har doim universitetlar bilan hamkorlik qilib kelgan va ilgari xususiy sektor faqat xayriya yordami, homiylik yoki oddiy xayriyalar bilan chegaralangan bo'lsa, bugungi kunda u ta'lim muassasasi hayotida faol ishtirok etishga, uni rivojlantirishga, moddiy-texnik bazasini yaxshilashga, o'z mablag'lari hisobidan kadrlar tayyorlash tizimida noyob mutaxassislarni tashkil etish va jalb qilishga, ta'lim muassasalarini modernizatsiya qilish jarayoniga o'z mutaxassislarni jalb qilishga, boshqa xayriya tashkilotlarining mablag'larini, shuningdek, qo'shma ta'limni amalga oshirish uchun turli darajadagi byudjetlarni jalb qilishga qaratilgan. Nodavlat ta'lim muassasalariga bo'lgan talabning kundan kunga oshib borishi natijasida yirik tashkilotlar, kompaniyalar o'zi mustaqil ham oliy o'quv yurti doirasida korporativ universitetlarni tashkil etyapti.

Bu jarayon an'anaviy oliy ta'limdan tashqarida, o'ziga xos qonuniyatlarga ko'ra rivojlanib boryapti. Masalan, AQShda 1700 dan ortiq korporativ ta'lim muassasalari mavjud. Universitetlar qoshida faoliyat yuritayotgan biznes maktablarining o'quv dasturlari ko'pincha nazariy bo'lib, biznes hamjamiyatining hozirgi ehtiyojlariga javob bermaydi. Shu sababli ko'plab yirik korporatsiyalar o'z korxonalari muammolarini hal qilish uchun o'zlarining universitetlarini tashkil qiladi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari bandlik sektori bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan va ish beruvchilarning malakali ishchilarga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettiruvchi ilg'or kasbiy ta'lim dasturlarini qamrab oladi.

Oliy ta'lim muassasasi bilan hamkorlik qiluvchi tashkilotlar ta'lim sohasidagi o'zaro hamkorlikning muhim yo'nalishi – jamoatchilik ishtiroki institutlarini yaratish va rivojlantirishdir. Bunday muassasalar qatoriga barcha xorijiy universitetlarda faoliyat yurituvchi nazorat, vasiy, jamoat, boshqaruv va boshqa turdagi kengashlar kiradi. Bu muassasalar



2-rasm. Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari hamda xususiy sheriklik shakllari va mexanizmlari tasnifi⁹

⁹ Tadqiqotchi ishlarnasi

universitetning moddiy, intellektual va ilmiy bazasini rivojlantirishga ta'lim muassasasining o'z vakillarini ham, davlat, xususiy biznes, fan, keng jamoatchilik, talabalar va boshqalarni ham jalb etish imkonini beradi. Ularning ishtirokida har bir vakil ta'lim muassasasining rivojlanishiga hissa qo'shishga chaqiriladi. Bu mablag' yig'ish, strategiyani ishlab chiqish, ta'lim uchun grantlar ajratish, bitiruvchilarni ishga joylashtirishga ko'maklashish, davlat organlarida manfaatlarni lobbi qilish, ta'lim muassasasi haqidagi ma'lumotlarni jamoatchilik va ommaviy axborot vositalariga yetkazish va ishtirok etishning boshqa shakllari bo'lishi mumkin.

Hamkorlikning umumiy va samarali yo'nalishi bu faoliyatning muayyan yo'nalishlarini bepul moliyalashtirish ko'rinishidagi grantlar va grant dasturlari, akademik kurslar va dasturlar, ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar, loyihalar, stipendiya dasturlari, xayriya jamg'armalari va boshqalarda faol ishtirok etadi. Bu ta'limning qulayligini oshiradi, uni modernizatsiya qilishga xizmat qiladi va abituriyentlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Biznes va universitet o'rtasidagi hamkorlikning yana bir faol yo'nalishi bu universitet bitiruvchilari uyushmalarini tashkil etish bilan kafolatlanadi. Bunday tashkilotlardagi bitiruvchilar o'z universitetlarini turli yo'llar bilan qo'llab-quvvatlaydilar, chunki ular universitetning muvaffaqiyati sifatida diplomlarining raqobatbardoshligini oshirishini tushunishadi. Shu bois ular ishbilarmonlik va kasbiy aloqalarni yo'lga qo'yishga o'z hissasini qo'shadi, qo'shma loyihalar tashabbuskori bo'lib, ta'lim muassasasi ma'muriyati va o'quvchilari bilan o'zaro hamkorlikni tashkil etadi, qo'shma tadbirlar o'tkazadi, bandlikka ko'maklashadi, ish topishda bir-biriga yordamlashadi. Ko'pincha bu uyushmalar vasiylik kengashlarini tuzish tashabbusi bilan chiqadi, keyin ularning faoliyatida faol ishtirok etadi.

Ta'kidlash joizki, innovatsion jarayonda sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish uchun intellektual mulk huquqlarini tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi. Byudjet mablag'lari hisobidan yaratilgan intellektual mulk masalalarini tartibga solish bo'yicha xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, qo'llanayotgan sxemalar farqiga qaramay, bir qator mamlakatlarda ma'lum o'xshashliklar mavjud. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan narsa tizimning quyi bo'g'inlari – universitetlar va ilmiy tashkilotlarning ilmiy hamda

texnologik faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarni tasarruf etishdagi rolining ortib borishidir. Asosiy tendensiya shundan iboratki, intellektual mulk (intellectual property)ni iqtisodiy muomalaga kiritish jarayonlarini tezlashtirish uchun davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalariga bo'lgan huquqiy ishlarni bajaruvchilarga (universitetlar, davlat ilmiy-tadqiqot institutlari, xususiy firmalar) yetkazishdir. Ikkinchi muhim tendensiya – raqobatdan oldingi bosqichda davlat-xususiy sheriklikning keng tarqalishi. Bunday hamkorliklar intellektual mulk huquqlaridan tashkilotlarni davlat tadqiqot tashkilotlari bilan hamkorlik qilishga undash mexanizmi sifatida foydalanadi. G'arb mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, huquqlarni qo'lga kiritgan holda universitetlar va boshqa ilmiy-texnik tashkilot rahbarlari tijoratlashtirish sohasida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishadi.

Oliy ta'limning barqaror faoliyat yuritishi va rivojlanishi, shuningdek, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatining oshishi bevosita yetarli moliyaviy resurslarga bog'liq. Shuning uchun ham oliy ta'limni boshqarish tizimida moliyaviy mexanizm muhim o'rin tutadi. Oliy ta'lim moliyaviy mexanizm tizimining ta'lim, ilmiy tadqiqot, takror ishlab chiqarish va tarbiyaviy funksiyalarini samarali amalga oshirish uchun moliyaviy resurslarni yaratish va ulardan foydalanishni ta'minlovchi mustaqil, lekin bir-biri bilan bog'liq bo'lgan shakllari, usullari, vositalari va dastaklari majmuyidir. Bizning fikrimizcha, oliy ta'lim sohasidagi moliyaviy boshqaruv quyidagilardan iborat bo'lishi kerak: ta'lim muassasalarining, birinchi navbatda, moliya sohasida mustaqilligini takomillashtirish; resurslarni, shu jumladan, mablag'larni boshqarishda, daromad keltiruvchi faoliyatning har xil turlarini amalga oshirishda diversifikatsiyalashni kengaytirish; mablag'larni sarflashda ta'lim muassasalarining mustaqilligiga erishish. Bu o'quv, ilmiy, shuningdek, oliy o'quv yurtidan keyingi jarayonning moddiy-texnik bazasini yaxshilash, professor-o'qituvchilar tarkibi darajasini oshirish, oliy ta'limning moddiy, moliyaviy va kadrlar resurslaridan samaraliroq foydalanish imkonini beradi.

Davlat nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarini quyidagi yo'llar bilan rag'batlantirishi kerak:

- soliq imtiyozlari berish;
- oliy ta'limni kreditlash va sug'urtalash mexanizmini takomillashtirish;

– homiylikni rivojlantirishni rag‘batlantirish;
– o‘qituvchilar va talabalar uchun grantlar shaklida xorijiy investorlarning mablag‘larini jalb etishga ko‘maklashish;


– oliy o‘quv yurtlariga ta‘lim muassasalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlar bo‘yicha soliq imtiyozlari berish, shu jumladan, mulk ijarasi va boshqalar.

Nodavlat oliy ta‘lim tashkilotining moliyaviy resurslarini samarali boshqarish jarayoni moliya tizimining normal barqarorligiga erishish va raqobatdosh ustunliklarni oshirishga qaratilgan universitetlarning joriy faoliyati uchun bir qator chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni nazarda tutuvchi strategik moliyaviy ko‘rsatmalarga asoslanishi kerak. Universitetlar faoliyatining moliyaviy mexanizmini takomillashtirishning yana bir yo‘li universitetlarni ilmiy-tadqiqot markazlariga aylantirish orqali ularning milliy innovatsion tizimni shakllantirishdagi ishtirokini rag‘batlantirishdir. Nodavlat oliy o‘quv yurtlarining innovatsion faoliyatidan, ya‘ni o‘z ilmiy tadqiqotlarini xorijda amalga oshirishdan olinadigan daromad oliy ta‘lim muassasalari uchun muhim qo‘shimcha moliyaviy manbaga aylanishi mumkin.

Nodavlat oliy ta‘lim moliyaviy barqarorligini ta‘minlashning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

Tashkiliy yo‘nalishi: buyurtmachilar talabi bo‘yicha talabalarni tayyorlash uchun ajratilayotgan mablag‘lardan foydalanish; tashkilotning ta‘lim xizmatlarini vertikal va gorizontaal yo‘nalishda diversifikatsiya qilish; amaliy ilmiy ishlanmalarning to‘liq innovatsion-tashkiliy siklini ta‘minlash; universitetlarning marketing faoliyatini faollashtirish; universitet aktivlarini o‘z vaqtida yangilash (3–5 yilda kamida bir marta).

Moliyaviy yo‘nalishi: ta‘lim sifati bo‘yicha belgilangan me‘yorlarga erishish uchun ta‘lim muassasasi ishchi xodimlarini KPI ko‘rsatkichlar bo‘yicha rag‘batlantirish; moliyaviy resurslardan tejamkor foydalanish; debitorlik qarzlarni va tashkilotning tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish; moliyaviy xavfsizlikda lizing va kredit vositalaridan foydalanish; ta‘lim xizmatlari uchun narx siyosatini o‘zgartirish; moliyaviy resurslar zaxiralarini shakllantirish; kontrakt asosida ta‘lim olayotgan eng yaxshi talabalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash; qo‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish uchun muvaffaqiyatli loyihalar uchun xodimlarni moddiy rag‘batlantirish tizimini qo‘llash va boshqalar.



3-rasm. Nodavlat oliy ta‘lim tashkilotlari moliyaviy mexanizmi tavsifi¹⁰

¹⁰ Tadqiqotchi ishlanmasi

Xulosa. Iqtisodiyotdagi inqirozli hodisalar sharoitida ta'limni byudjetdan moliyalashtirishning sezilarli darajada qisqartirilishi, oliy ta'lim muassasalarining o'z-o'zini moliyalashtirishga o'tkazilishi, nodavlat oliy ta'limni joriy qilish orqali davlat o'z funksiyalarining ma'lum qismini xususiy sektorga o'tkazishi dolzarb masala bo'lib kun tartibiga chiqdi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimi jahon standartlariga mos ravishda, zamonaviy talablarga javob beradigan ta'lim menejmentini yo'lga qo'yishi, sifat jihatidan yangi shart-sharoitlarni yaratish uchun xususiy sektorning vakolatlarini kengaytirish, barchaga teng shart-sharoitlar yaratish, moddiy-texnik bazasini yaxshilashga ko'maklashish, fiskal instrumentlardan oqilona foydalanish, mulk daxlsizligini kafolatlash, hisobdorlik asosida imtiyoz va preferensiyalar taqdim etish, shaffof raqobat muhitini yaratish va investitsiyalarini jalb qilish uchun jozibadorlikni oshirishni talab qiladi. Shunday qilib, davlat ta'lim xizmatlarining rivojlangan raqobatbardosh bozoriga ega bo'ladi, ta'limni byudjetdan moliyalashtirish xarajatlari kamayadi, o'zaro hamkor tomonlar va buyurtmachilar oliy o'quv yurtlarining kadrlar

tayyorlash sifatiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi, ta'lim muassasalari esa qo'shimcha mablag' jalb etish va innovatsion ta'lim dasturlarini amalga oshirish hamda sifatli boshqaruv imkoniyatiga ega bo'ladi.

Buning natijasida O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimida ma'lumotlar bazasi bilan ishlash, ularni tahlil qilish bo'yicha mutaxassislarda chuqur bilim va ko'nikma shakllanadi. Ta'lim tizimidagi shaffof ma'lumotlarga ega bo'lish orqali ta'lim jarayonlari monitoringini yuritish, taqqoslash, xulosalar chiqarish, mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishiga erishiladi.

Bugungi kunda oliy ta'limni rivojlantirish davlat va biznes tuzilmalarining samarali hamkorligiga asoslanishi lozim. Bunday hamkorlikning afzalliklari, bir tomondan, yagona ta'lim standartlarini joriy qilishda qo'shimcha moliyaviy yordam olish imkoniyatini yuzaga keltirsa, ikkinchi tomondan, kadrlar bozori ehtiyojlariga javob beradigan, yuqori potensialga ega, imkon qadar bilimli kadrlar yetkazib berishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Smith A. & Akib H. The Implementation Effectiveness of Trash Management in Ambon, Maluku: The Influence of Socialization, Coordination and Control to the Effectiveness of Trash Management. *International Journal of Public Administration* (Vol. 38). 2015. <https://doi.org/10.1080/01900692.2014.908214>
2. Rondinelli D.A. Globalization of sustainable development: Principles and practices in transnational corporations. *Multinational Business Review*. – № 15 (1), 2007. pp. 1–24.
3. Burke J. C. The many faces of accountability. *Achieving Accountability in Higher Education: Balancing Public, Academic and Market Demands*, 2005. pp. 1–24.
4. Grözinger Gerd & Rodríguez-Gómez Roberto. (2007). Managing Higher Education: Introduction. *Management review. The International Review of Management Studies*. – № 18. pp. 95–101. 10.5771/0935-9915-2007-2-95.
5. Rachman E. & Nawawi J. & Arismunandar Arismunandar & Kasmawati A. & Akib Haedar. Autonomy of private higher education management: Financial accountability perspective. *International Journal of Economic Research*. – № 14, 2017. pp. 175–185.
6. Muktiyanto A., Rossietta H. & Hermawan A. A. *The Effect Of Good University Governance And Strategy Toward The Performance Of Higher Education Institution*, 2014.